



VOYAGA ETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI

Esemuratov Jasurbek

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Magistratura bo'limi Jinoyat qonunchiligini q
o'llash nazariyasi va amaliyoti 2 kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19508113>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 09-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 11-aprel 2026 yil

KEY WORDS

Voyaga yetmaganlar, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining profilaktikasi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada sud tizimida raqamlashtirishning ahamiyati tuzilishida fikr juritilib, qabul qilingan dasturlar ishrosi muhojama qilingan xolda ayrim kamchiliklar "Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi tushunchasi - jamiyatda muhim ijtimoiy-huquqiy muammo sifatida qaralmoqda. Ushbu annotatsiyada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning mazmuni, ularning o'ziga xos xususiyatlari va shakllanish omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy sabablar, jumladan, oilaviy muhit, ta'lim tizimidagi kamchiliklar, tengdoshlarning ta'siri va nazoratning sustligi kabi omillar aks ettiriladi. Mavzuda voyaga yetmaganlarning huquqiy javobgarligi, profilaktik tadbirlarning ahamiyati va ularni ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish masalalari ham alohida e'tibor markazida bo'ladi. Ushbu annotatsiya yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish, ularni to'g'ri tarbiyalash va huquqiy ongini oshirish zarurligini asoslab beradi. Эътироф этилиб, бартараф этиш бўйича таклифлар илгари сурилган. Хусусан, мақолада иқтисодий низоларни кўрувчи судларда ҳам суд мажлиси баённомаларининг ўрнига батафсил тўхталган ҳолда, ушбу жараённи ҳам рақамлаштириш таклиф этилган.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti va uning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jinoyatchilik doimiy ravishda huquqshunos olimlar, turli soha mutaxassislari, qolaversa, jamiyatning har bir a'zosi e'tiborida bo'lgan va bo'lib kelmoqda. Insoniyat, jamiyat jinoyatchilikning zararli oqibatlaridan aziyat chekib kelganligi sababli jinoyatchilikka qarshi kurash muammosini

o'rganib, uning oldini olishga harakat qilib kelmoqda. Lekin aksariyat hollarda jinoyatchilik muammosini o'rganishning asosiy maqsadi sodir etilgan jinoyatni aniqlash va aybdorni jazolash bilan cheklanganini ko'rishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bunda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari va bunga imkon bergan shart-sharoitlarni o'rganish asosiy o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining huquqiy tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish muhim hisoblanadi.

Jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar doirasida yuzaga keluvchi jinoyatchilikning sabablari, jinoyatchining shaxsi, uning shaxsiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi? degan savollarga javob topishga bo'lgan intilish ilk uyg'onish davri faylasuflari, tarixchilari va huquqshunoslari tomonidan tadqiq etilgan, jinoyatchilik muammolari ijtimoiy-tabiiy fanlarning turli soha olimlari e'tiborini tortgan.

Huquq nazariyasi, qonunchilik hamda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashish va uning barvaqt oldini olish amaliyotida "voyaga yetmagan," "jinoyat," "jinoyatchilik," "voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi," "voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish," "voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining profilaktikasi" kabi mazmunan o'zaro bog'liq bo'lgan tushunchalardan foydalanilmoqda. Olimlar orasida bugungi kunga qadar "voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi" tushunchasiga oid qarashlar shakllangan bo'lsa-da, tadqiq etilayotgan masalaga nisbatan yagona va umume'tirof etilgan yondashuv mavjud emas. Muhokama qilinayotgan tushunchaning umumiy huquq nazariyasi va qonunni qo'llash amaliyotida turlicha tahlil qilinayotganligi, amaldagi qonunchilikda ushbu atama ta'rifining ochiq qolgani, uning mazmuni, amal qilish doirasini belgilash imkoniyatini pasaytiradi.

Bu esa o'z navbatida "voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi" tushunchasi, mohiyati va ahamiyatini har tomonlama chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, har qanday huquqiy institut singari voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ilmiy-nazariy asoslarini puxta ishlab chiqish, amaliyotda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishda muvaffaqiyatli va samarali ishlashining garovi bo'lib xizmat qilishi tabiiy.

Hozirgi vaqtda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda "voyaga yetmagan" tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritishda bir qator munozarali yondashuvlar mavjud:

O'smirlik - Ijtimoiy layoqatli shaxsga aylanishi. Biz ham bu fikrlarga qo'shilamiz. Biroq umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarida "voyaga yetmagan" so'zi berilmaganligi ham bahsga sabab bo'lmoqda;

Ilmiy yondashuv: O'zbekiston hududida bola huquqlarining genezisi, evolyutsiyasi va uning istiqbollari bo'yicha tadqiqot olib borgan D.R.Karimova "Bola - homiladan 18 yoshgacha bo'lgan inson avlodi" deydi. Biz D.R.Karimovaning homilador bolani ham bolaga qo'shganligini qo'llab-quvvatlaymiz, chunki homila paytida ham bolaning muayyan huquq va erkinliklari yuzaga keladi va uni ta'minlash vazifasi mas'ul davlat organlari zimmasiga yuklatiladi;

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunida (2010) esa "voyaga yetmagan - o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs" deb belgilangan, O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunida (2017) ham "bolalar - o'n sakkiz yoshga to'lmagan (voyaga yetmagan) shaxslar" deb ta'riflangan.

Yuqoridagi xalqaro va milliy qonunlarda bola va voyaga yetmaganlar bu 18 yoshdan katta bo'lmagan shaxslar ekanligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Jinoyat-ijroiya kodekslari va boshqa voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda

"voyaga yetmagan" tushunchasiga ta'rif berilmagan bo'lsa-da, "voyaga yetmagan" so'zlari qo'llangan va ularda asosan 14-18 yoshlilarga e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, shaxsni voyaga yetmagan yoki bola, deb ajratish tibbiy, psixologik, ijtimoiy va huquqiy jihatdan ko'rib chiqiladigan tushunchalar hisoblanadi, chunki bola yoki voyaga yetmaganlik tibbiy, psixologik, ijtimoiy va huquqiy jihatdan to'liq shakllanmaganligidan kelib chiqib belgilangan, ularning jismoniy, jinsiy va ruhiy jihatdan yetilishi inobatga olinadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2020-yil 1-yanvar holatiga ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimiz aholisining 36,6% (12.157.063 kishi) voyaga yetmaganlar (0-18 yosh) bo'lib, ularning 51,7% ini (6.279.778 kishi) o'g'il bolalar, 48,3% ini (5.877.285 kishi) qiz bolalar tashkil etadi. Shuningdek, voyaga yetmaganlarning yoshiga qarab tahlil qilinganda 10,7% ni 0-4 yoshdagilar, 9,6% ni 5-9 yoshdagilar, 8,6% ni 10-14 yoshdagilar, 7,7% ni 15-18 yoshdagilar tashkil etadi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalardan yana biri "jinoyatchilik" tushunchasidir.

Kriminologiyada jinoyatchilik va jinoyatchi shaxsini o'rganishga juda keng va izchil ijtimoiy yondashuv bo'ladi. Masalan, jinoyat huquqi o'z ijtimoiyligiga ega bo'lsa-da, lekin ko'rib chiqilayotgan hodisalarni o'rganishda asosiy e'tiborni jinoyat va jazo haqidagi jinoyat-huquqiy normalarni tahlil qilishga qaratadi, kriminologiya nafaqat ijtimoiy fan, balki huquqiy fan ham hisoblangani uchun jinoyatchilikka amaldagi jinoyat qonuni normalaridan chetga chiqmagan holda, huquqiy ta'rif beradi. Bu jihatdan esa u jamiyatga qarshi jinoyatni, shu jumladan, jinoyatchilikni ham o'rganadigan jamiyatshunoslikdan farq qiladi. "Jinoyatchilik" "Kriminologiya" fanining predmeti bilan uzviy bog'liqligi tufayli asosan, jinoyatchilikning mazmunini, miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'rganadi.

"Jinoyatchilik" tushunchasi kriminologiyaning eng muhim va keng qamrovli tushunchasidir. Unga kamida ikki nuqtai nazardan: formal son (statistik) va sifat (sotsiologik) jihatlardan yondashish mumkin.

Jinoyatchilik bilan bog'liq salbiy ijtimoiy hodisalar (fohishabozlik va boshqa ma'muriy huquqbuzarliklar, tilanchilik, alkogolga qaramlik, giyohvandlik yoki psixotrop moddalarga qaramlik, suitsid va boshqa jamiyatga qarshi jinoyatlar) ham kriminologiya fani doirasida o'rganiladi.

"Jinoyatchilik" tushunchasiga "jinoyatchilik - muayyan hududda (davlat yoki uning ma'muriy-hududiy birligi) da, muayyan davrda (oy, chorak, yarim yil, to'qqiz oy, yil, ikki yil va h.k.) sodir etilgan barcha jinoyatlar yig'indisini o'z ichiga olgan, belgilangan miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadigan, yashirin xususiyatga ega, nisbatan ommaviy, obyektiv, tarixiy o'zgaruvchan, ijtimoiy xavfli, ijtimoiy-huquqiy hodisa" deb ta'rif bergan mualliflar unga jinoyatchi shaxsini kiritmagan.

K.Yu.Loginova voyaga yetmaganlarning mulkiy jinoyatchiligini o'rganib, "voyaga yetmaganlarning mulkiy jinoyatchiligi - Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 21-bobida nazarda tutilgan mulkka qarshi jinoyatlar majmuidan tashkil topgan, predmeti o'zganing mulki

bo'lgan, 14-17 yoshdagi shaxslar tomonidan muayyan hududda, muayyan vaqt davomida sodir etilgan salbiy ijtimoiy-huquqiy, ommaviy hodisa" deydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga asosan jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar hamda jinoyat sodir etgunga qadar o'n uch yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish uchungina (97-moddasi ikkinchi qismi), shuningdek jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar ushbu Kodeks 97-moddasi birinchi qismi, 98, 104 - 106, 118, 119, 137, 164 - 166, 169-moddalari, 173-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlari, 220, 222, 247, 252, 263, 267, 271-moddalari, 277-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlari. bo'limlarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Respublikamizdagi jami voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini tahlil qilganda yosh bo'yicha ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Respublikamizda jami voyaga yetmaganlarning 18,7 foizini jinoiy javobgarlik yoshiga (14-18 yosh) yetganlar tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bala huqqlari haqqida'gi konvenciya» Nyu-York, 1989-jil 20-noyabr Birlesken Milletler Sholkemi Bas Assambleyasini'ni 44/25-sanli rezolyuciyasi menen qabil etilgen.
2. Sbornik mejdunarodnix dogovorov Respubliki Uzbekistan, 2009 g., No 2-3.
3. Sbornik mejdunarodnix dogovorov Respubliki Uzbekistan, 2008 g., No 3-4.
4. Karimova D.R. O'zbekstan aymag'inda bala huqqlari genezisi, evolyuciyasi ham onin perspektivalari.
5. Karimova D.R. O'zbekstan aymag'inda bala huqqlari genezisi, evolyuciyasi ham onin perspektivalari. Yuridikaliq ilimler doktori ilimiy darejesin aliw ushin jazilgan dissertaciya. - T.: 2017. B. 31.
6. O'zbek tilini'ni tusindirne sozligi / 80 000 nan artiq soz ham soz birikpeleri / www.ziyouz.com / kitapxanası. B 469.
7. O'zbekstan Respublikasini'ni «Erjetpegenler arasında qada'alawsızlıq ham huqqbuzarlıqlardini profilaktikasi haqqında»gi 2010-jil 29-sentyabrdegi nızamı // <http://lex.uz>.
8. O'zbekstan Respublikasini'ni «Balalardi olardini densawlıgına ziyan keltiretuğın malimlemeden qorgaw haqqında»gi 2017-jil 8-sentyabrdegi nızamı // <http://lex.uz>.
9. 2010-2020 O'zbekstan Respublikası Mámleketlik statistika komiteti. Demografiya. Xalıq ham tirishilik statistikalıq maglıwmatları / www.stat.uz (19.02.2020).
10. Ismailov, Q. R. Abdurasulova, I. YU. Fazilov. Kriminologiya panini'ni qaliplesiwi, rawajlanıwı ham hazirgi jag'dayı: Oqiw qollanba / T.: O'zbekstan Respublikası IIM Akademiyası, 2014. - 57 b. B 7-8.
11. Q.R.Abdurasulova. Kriminologiya. Sabaqlıq. Juwapker redaktor: Yu.f.d., prof. M.X.Rustambaev. - T.: TDYUI baspası, 2008. 305 bet. B 19.
12. Kogan V.M. Socialnie svoystva prestupnosti. - M.. 1977. - 37 b.
13. Kriminologiya. Uliwma bolim: IIM joqarı oqiw orınlari ushin sabaqlıq / I.Ismoilov, Q.R.Abdurasulova, I. Y.Fazilov; Juwapker redaktor Sh.T.Mkramov. - T.: O'zbekstan Respublikası IIM Akademiyası, 2015. - S.59
14. Loginova K.Yu. Imushestvennaya prestupnost nesovershennoletnix i merı ego preduprejdeniya: avtoref....dis. qand. yurid. nauk. - Tashkent, 2015. - S. 6.

15. Saleh Ali Salem Al-Marfadiy. Yemen Respublikasida erjetpegenler jinayatshılıgınıń kriminologiyalıq hám sociallıq-psixologiyalıq ózgeshelikleri. Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk.

